YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL, OKTYABR / VI MAXSUS SON

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 307 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 24-oktyabrda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 9
Yunusov Xudoynazar Beknazarovich

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA MUNOSABATLARI VA INVESTITSION AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 11
Egamberdiyeva Salima Rayimovna

KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH FOYDA KO‘RSATKICHLARINI 2029-YILGACHA PROGNOZI 20
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI 23
Kurbanov Ziyat Niyazovich

ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА И ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ 28
Н. Бердимурат, А. Бердимурат

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI RISKLARGA YO‘NALTIRILGAN HOLDA TASHKIL ETISH 34
Alikulov Abdimo‘min Ismatovich, Ruzieva Elvira Abdulmitovna, Rakhimova Umida Rabbimovna

CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 “QISHLOQ XO‘JALIGI” STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 40
Alikulov A.I., Sayfiyev S. S., Karimov I.Sh.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASHNING ZARURATI 47
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 50
Fayziyev Oybek Raximovich

CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 57
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVISNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 63
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich

QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI 68
Amaniyazov Rinat Bayniyazovich

MINTAQAVIY BOG‘DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (Samarqand viloyati tumanlari misolida) 74
Akbarov Husan O‘zbekxonovich

SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 79
Azimova Hulkar Egamberdiyevna

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING TEXNOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA METODOLOGIYASIGA TA’SIRI 86
Mardonov Mamed Shavkatovich

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR HAMDA JOZIBADOR INVESTITSION MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI 89
Raxmatov Jonibek Ismoil o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SAMARQAND VILOYATIDA MAISHIY XIZMATLARNI RIVOJANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA OID TAVSIYALAR 96
Navruzbek Azimjonovich Rajabov

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING TAHLILI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI 99
Saparov Murod Irgashovich

O‘ZBEKISTONDA SAVDO VA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI TARAQQIYOTINING ILMIY ASOSLARI VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 102
Jurakulov Shoxrux Baxtiyorovich

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 108
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich

INNOVATSION AGROTEXNIK TADBIRLAR (XOMTOK VA BARG SONINI BOSHQARISH) ASOSIDA MAYIZBOP UZUMCHILIKDA BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 114
Abdurasulov Otabek Abdurasul o‘g‘li, Mahmudova Fotima Erkin qizi

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 117
Ishturdiev Hasan Abdugapparovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ БИОЛОГИЧЕСКОВ АКТИВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ 121
Изатиллаева Комила, Эшмурадов Улугбек Ташмуратович

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY YO‘NALISHLARI 128
Raximova Umida Rabbimovna, Vahobov Diyor Husan o‘g‘li, Mardonova Parizoda Ziyodullayevna, Djuraqulov Sherali Abdullayevich

O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVI ASOSLARI 133
Razikov Otabek Rustamovich

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 137
Raximova Umida Rabbimovna, Qodirberganova Tabassum Ro‘zimboy qizi, Xazratqulov Firdavs Firuzovich, Qadamboyev Mirxandbek Xamidjon o‘g‘li

LIMON MEVASINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI TUZUKLAR 140
N.Mamatkulov, Ochilova Marg‘uba

KICHIK BIZNESNI EKSPORTGA OLIB CHIQISH: AMALIY STRATEGIYALAR VA HAYOTIY TAJRIBALAR 143
R. T. Qudratov, A. X. Sodiqov

FERMER XO‘JALIKLARIDA SOTISH JARAYONLARI HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 147
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Abdunazarova Sevinch

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 154
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BIZNES-JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 159
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

G‘ALLA YETISHTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHNING HOZIRGI HOLATI 165
Sh.X. Yuldashev, S.S. Nematilloyev

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 171
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROTIDA OZBEKISTONDA ISHSIZLARGA YANGI ISH ORINLARINI YARATISH 177
Nazarova M.Sh., Berdikulov Ravshan, Nematullaev Ozodbek, Xasanov Rizo

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 181
Шадиева Гулнора Мардиевна

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 185
Saparov Murod Irgashovich

SUT CHORVACHILIGIDA MAHSULOT TANNARXINI OMILLI VA MARJINAL TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 189
Abduganieva Dildora Bobir qizi, Alikulov Abdimo‘min Ismatovich

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA TA’MINOT JARAYONI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 195
Ishturdiev Xasan Abdigapparovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 200
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi

ПИЩЕВЫЕ ОТХОДЫ И СТРАТЕГИИ БОРЬБЫ С НИМИ 214
Казакова Зулайхо Салахиддиновна, Хотамова Юлдуз Юнусжоновна, Авалбаева Самира Кахрамон кизи, Ахророва Малохат Аброр кизи

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR BO‘YICHA ICHKI NAZORAT VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 221
Raximova Umida Rabbimovna, Jumaniyazova Munisa Jamoliddin qizi, Xoliqberdiyev Firdavs Ilhamovich, Nafasov Og‘abek Bobirjon o‘g‘li

KORXONALARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TANNARXINI IAS 2 STANDARTI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH VA UNING AUDITORLIK TAHLILI 225
To‘xtayev Zafar Mamatqulovich, Omonov Sindorbek G‘ayrat o‘g‘li, Abdusalomov Jasurbek Abdukarim o‘g‘li

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA BAHOLASH VA AMORTIZATSIYA USULLARI: XALQARO VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI 229
Azzamova Dinora Xolmumin qizi

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 232
X. Axmedov, S. Karimov, M. Raxmonova, G. B. Narziyeva

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕСА 237
Р. С. Макашева, А. Бердимурат, Азизова София, Акимова Милан

ИНВЕСТИЦИИ, ИННОВАЦИИ И РЕБРЕНДИНГ КАК ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА 242
Шадиева Гулнора Мардиевна

SAMARQAND VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘IDA KLASTER TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI 246
Roziyeva Gulhayo Choriyevna

PAXTA YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI 254
Z.N.Ishniyazov

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 257
G. B. Narziyeva, Baxriddinov Samandar, Jumayev Azamat

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA MILLIY IQTISODIY ISLOHOTLAR: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA STRATEGIK MOSLASHUV 262
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Yaxshiliqov Jo‘raqul Rahmiddin o‘g‘li, Napasov Aslonbek Asqar o‘g‘li

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 267
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Tursunov Samad Dilshod o‘g‘li, Tog‘aymurodov Sorbon Suhrob o‘g‘li, Eshqulov Murodjon O‘tamurod o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

FAOL TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING ASOSLARI 274
Baxtiyorov Mexro‘zxon Baxtiyorovich, Salamov Ibroxim

УЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ 279
Бердимурат Н., Сапарбай А., Қырықбай Қ.

СИСТЕМА НАЛОГОВ И СБОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ВЕКТОР РАЗВИТИЯ 286
Бахтиярова Севинчой Абдиязовна, Султонбоева Севинчой Азизбековна

AKVAKULTURA: TABIIY-IQLIM SHAROITLAR, BALIQ YETISHTIRISH USULLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI 289
Urdushev Xamrakul, Rabbimova Parvina Askar qizi

БИОЛОГИЧЕСКИЕ АКТИВЫ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА 293
Кураленко Алина, Эшмурадов У.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 298
Туякбаева Жазира, Таженова Хурлиман, Ш. Юлдашев

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA JAVOBGARLIK MARKAZLARI SEGMENTAR HISOBOTLARINING XUSUSIYATLARI 301
Alikulov G‘olib Abdimuminovich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI

Kurbanov Ziyat Niyazovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori,
iqtisodiyot fanlari doktori

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiqlashtirishning nazariy masalalari yoritilgan. Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar mohiyati va ularni toifaga kiritish mezonlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, MHXS, jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar.

Abstract: This article examines the theoretical aspects of aligning financial accounting systems with international requirements and standards in the context of the digital economy. It also identifies the nature of organizations of public importance and the criteria for their inclusion in this category.

Key words: digital economics, accounting, IFRS, public interest entities.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические вопросы приведения системы финансового учета в соответствие с международными требованиями и стандартами в контексте цифровой экономики. Указана природа организаций, имеющих общественное значение, и критерии включения их в эту категорию.

Ключевые слова: цифровая экономика, бухгалтерский учет, МСФО, организации, имеющие общественное значение.

KIRISH

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini tashkil etish va amaliyotda xalqaro standartlarni qo‘llash buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirishni talab etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-apreldagi 171-son “O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash uchun auditning xalqaro standartlarini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro ilmiy asoslangan standartlarga moslashtirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini tug‘dirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha iqtisodchilar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (2025) 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-son qarorida moliyaviy hisobotlarni tuzishda aniqlik va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha ko‘rilgan choralar natijasida yirik korxonalarning moliyaviy hisobotlari Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Financial Reporting Standards (IFRS)) asosida tuzishga o‘tilgani, moliyaviy hisobning milliy tizimini xalqaro talablarga uyg‘unlashtirishga erishilgani, kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilayotganligi ko‘rsatib o‘tilgan [1].

I. N. Ismanov (2017) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining mohiyatini quyidagicha ifodalagan: “MHXS korxona faoliyati to‘g‘risida moliyaviy axborotlarning manbai bo‘lgan va foydalanuvchilar uchun xizmat qiladigan moliyaviy hisobot tayyorlashga yo‘naltirilgan. Ushbu standartlar alohida olingan mamlakatning qonunchiligiga bog‘lanmagan va faoliyat turi, o‘lchami, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar barcha korxona hisobotini shakllantirish uchun yo‘naltirilgan” [Ismanov, 2].

N. Sh. Xajimuratov (2020) MHXS asosida tuzilgan hisobotlarning ahamiyatini quyidagicha izohlaydi: “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotlarining xalqaro standartlar asosida taqdim etilishi investorlar

uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Zero, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar ishonchli va haqqoniy hisoblanadi" [Xajimuratov, 3].

X. Rizayevning (2022) qarashicha, "O'zbekistonda ayni vaqtda MHXS joriy etib borilishi bilan MHXS bo'yicha hisobot va soliq tizimi o'rtasida nizolar bo'lishi aniq. Shu sababli MHXS bo'yicha hisob yuritishga o'tishda, moliyaviy hisobni yuritish uchun MHXS normalaridan foydalanish qoidalarini va ko'pgina yo'riqnomalarni chiqarish kerak bo'ladi" [Rizayev, 4].

MHXSga o'tishning ahamiyatini S. N. Tashnazarov (2021) quyidagicha izohlagan: "Mamlakatimizdagi aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar va boshqa korxonalarning ixtiyoriylik asosida o'z tashabbuslari bilan MHXSlari asosida moliyaviy hisobotga o'tishlariga erishishimiz lozim. Korxona va tashkilotlar o'zlari MHXSlariga o'tishda naf olishlari, uning afzalliklarini his qilishlari lozim. MHXSlar orqali investitsiyaviy jozibadorligiga erishish yo'li bilan korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifa sifatida qaralishi lozim" [Tashnazarov, 5].

Ye. Nesterenkoning yozishicha (2025), "2023-yil iyun oyida IFRS Kengashi birinchi marta barqarorlik bilan bog'liq ikkita yangi standartni chiqardi: IFRS S1 "Barqarorlik bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish uchun umumiy talablar" va IFRS S2 "Iqlim bilan bog'liq ma'lumotlarni ochib berish". Ular barqarorlik va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan xavf va imkoniyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish talablarini belgilaydi, ular korxonaning pul oqimiga, moliyalashtirishga kirishiga yoki kapital qiymatiga ta'sir qiladi" [Nesterenko, 6].

Ye. Zibarevaning (2025) fikricha, "IFRS S1 barqarorlik risklari va imkoniyatlarini va oshkor etilishi kerak bo'lgan tegishli ma'lumotlarni aniqlash bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun IFRS S1 korxonalardan korxonaga ta'sir qiluvchi barcha muhim barqarorlik risklari va imkoniyatlarini aniqlash va oshkor qilish uchun ikki bosqichli jarayonni bajarishni talab qiladi:

- birinchi qadam barqarorlik bilan bog'liq risklarni va biznesga qisqa, o'rta va uzoq muddatda ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashga yordam beradi;
- ikkinchi qadam 1-qadamda belgilangan barqarorlik bilan bog'liq risklar va imkoniyatlar haqida qanday ma'lumotlarni oshkor qilish kerakligini aniqlashga yordam beradi" [Zibareva, 7].

Z. N. Kurbanovning (2025) fikricha, "Jahonda ro'y berayotgan jadal globallashuv jarayoni mamlakatimiz iqtisodiyotining moslashuvini talab qiladi. Global investitsiya portfeliga ega xalqaro investorlar kompaniyalar tomonidan iqlim va boshqa ekologik, ijtimoiy va boshqaruv masalalari bo'yicha yuqori sifatli, shaffof, ishonchli va qiyoslanuvchan hisobotlarni talab qilmoqdalar. Moliyaviy hisob tizimini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish yo'nalishlaridan biri bo'lib, moliyaviy hisobotning barqarorlik standartlari (IFRS Sustainability Standards)ni o'rganib, mamlakatimiz amaliyotiga joriy etishdir" [Kurbanov, 8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning hozirgi holatini tahlil etish maqsadida olib borilgan bo'lib, uning nazariy masalalari o'rganilib, umumlashtirilgan holda tegishli takliflar ishlab chiqildi va takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida nazariy qarashlar taqqoslanib va har xil usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi tizimiga moliyaviy hisobotning xalqaro talab va standartlarini joriy etish zaruriyati yuqorida keltirilgan iqtisodchilarning ilmiy ishlarida asoslab berilgan. Shuningdek, mamlakatimizda keyingi yillarda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'sib borayotganligi ham MHXSlarini amaliyotda qo'llashni zaruriyat qilib qo'ymoqda.

Mamlakatimizda yildan yilga xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasida 2022-2026-yillarda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni[1]

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar	2022-yil 1-yanvar holatiga	2023-yil 1-yanvar holatiga	2024-yil 1-yanvar holatiga	2025-yil 1-yanvar holatiga	2026-yil 1-yanvar holatiga
Qo'shma korxonalar	5 988	6 419	4 657	4 247	4 282
Xorijiy korxonalar	7 301	9 382	9 396	13 917	14 231
Jami:	13 289	15 801	14 053	18 164	18 513

1 Jadval muallif tomonidan tayyorlangan.

2022-yil 1-yanvar holatiga bu korxonalar soni 13 289 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga 18 513 ta bo‘lib, ularning 4 282 tasi qo‘shma korxona bo‘lsa, 14 231 tasi xorijiy korxonalarni tashkil qilgan. Hozirgi vaqtda 4 282 ta qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lsa, ularning ko‘pi “O‘zbekneftgaz” AJ tizimida shakllantirilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda mamlakatda 295 ta neft-gaz koni bor. Shundan 118 tasi — 40 foiziga “O‘zbekneftgaz” (davlat) egalik qiladi. Qolgan 176 tasi qo‘shma korxonalar va xorijiy kompaniyalarga tegishli.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yuqorida keltirilgan xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar buxgalteriya hisobi tizimi amaliyotiga moliyaviy hisobotning xalqaro talab va standartlari joriy etilgan.

Misol tariqasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tgan “UZBAT AO” aksiyadorlik jamiyatining umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumotlari keltirildi (2-jadval).

2-jadval. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga o‘tgan “UZBAT AO” aksiyadorlik jamiyatining 2023-2024-yillarda taqdim etiladigan alohida umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumot2 ming so‘m

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	2023-yil	2024-yil
Sof tushum, (satr.020+030+040+050)	010	2 753 975 643	2 928 934 297
mahsulot sotishdan	020	2 562 708 403	2 665 466 243
xizmatlar ko‘rsatishdan	030	583 736	276 372
qurilish shartnomalari bo‘yicha	040		
Boshqalar	050	190 683 504	263 191 682
Sotilgan mahsulot (tovar, xizmat)larning tannarxi	060	1 040 230 588	1 094 891 885
Yalpi daromad , (satr.010-060)	070	1 713 745 055	1 834 042 412
Boshqa operatsion daromadlar	080	20 042 564	18 159 808
Sotish xarajatlari	090	379 452 586	412 952 722
Ma’muriy xarajatlar	100	90 555 823	110 327 309
Boshqa xarajatlar	110	120 614 721	124 701 877
Operatsion daromad, (satr.070+080-090-100-110)	120	1 143 164 489	1 204 220 312
Qadrsizlanish bo‘yicha zararlar/tiklanish (satr. 140+150+160)	130	-10 654 215	-41 290 825
Moliyaviy aktivlar bo‘yicha	140	-1 680 008	33 434 155
Tovar moddiy zaxiralar bo‘yicha	150	-8 974 207	-74 724 980
Boshqa aktivlar bo‘yicha	160		
Dividendlar tarzidagi daromadlar	170		
Valyuta kursi farqidan foyda va zararlar	180	-2 034 774	2 784 708
Foiz tarzidagi daromadlar	190	11 180 702	35 480 434
Foiz tarzidagi xarajatlar	200	334 677	
Moliyaviy ijaradan daromadlar	210		
Moliyaviy ijara bo‘yicha xarajatlar	220		
Boshqa daromad va xarajatlar	230		
Soliqqa tortiladigan foyda/zarar (satr. 120+130+170+/-180+190-200+210-220+/-230)	240	1 141 321 525	1 201 194 629
Foyda solig‘i	250	153 049 155	191 759 487
Foydadan bos’hqa soliqlar va bos’hqa majburiy to‘lovlar	260		
Sof foyda/zarar (satr. 240-250-260)	270	988 272 370	1 009 435 142
Boshqa umumlashgan daromad/xarajatlar		x	x
Jami umumlashgan daromadlar (satr. 270+300)	310	988 272 370	1 009 435 142

2 Manba: Muallif ishlanmasi.

2-jadvalda “UZBAT AO” aksiyadorlik jamiyatining 2023–2024-yillarda taqdim etiladigan alohida umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumotlari keltirilgan bo‘lib, 2023-yilda sof tushum 2 753 975 643 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2 928 934 297 ming so‘mni tashkil etdi. Ushbu davrda sotilgan mahsulot (tovar, xizmat)larning tannarxi 2023-yilda 1 040 230 588 va 2024-yilda 1 094 891 885 ming so‘m bo‘lib, mahsulotni sotishdan yalpi foyda mos ravishda 1 713 745 055 va 1 834 042 412 ming so‘mni tashkil etgan. Sof foyda 2023-yilda 988 272 370 ming so‘m va 2024-yilda 1 009 435 142 ming so‘m bo‘lgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-son qarorida “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” tushunchasi kiritilgan bo‘lib, faoliyat turi va (yoki) aktivlari miqdori tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo‘lish kabi mezonlarga javob beradigan tadbirkorlik subyektlari Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritiladi deb belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 27-dekabrdagi qarori bilan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari, ularning moliyaviy hisobotlari va auditiga qo‘yiladigan talablar hamda Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom” tasdiqlandi [O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 27-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3736] [9].

Yuqoridagi Nizomda “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar”ga “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar — faoliyat turi, aktivlari hamda yillik tushumi, dividend shaklidagi daromadlari miqdori yoki xodimlarining soni tufayli yuqori ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirga, shuningdek, keng doiradagi manfaatdor tomonlarga ega bo‘lish kabi mezonlarga javob beradigan tijorat tashkilotlari” deb ta’rif berilgan.

Nizomda jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar toifasiga kiritish mezonlari keltirilgan bo‘lib, ular quyidagilar:

1. Qimmatli qog‘ozlari fond birjasining listingiga kiritilgan va ommaviy savdolarga chiqariladigan (Publicly Traded Entity) tashkilotlar.
2. Tijorat banklari, mikromoliya banklari, mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari va kafolatlar berish tashkilotlari, to‘lov tizimi operatorlari, to‘lov tashkilotlari.
3. Investitsiya fondlari.
4. Birjalar.
5. Ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi ellik foiz va undan ortiq bo‘lgan hamda bir vaqtning o‘zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida mazkur Mezonlarning 6-bandi “a” kichik bandiga muvofiq keladigan hamda mahsulot, tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan yillik sof tushumi va dividend shaklidagi daromadlari birgalikda bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq bo‘lgan davlat ishtirokidagi korxonalar.
6. Bir vaqtning o‘zida ketma-ket oxirgi ikki kalendar yil davomida hisobot yili yakunlariga ko‘ra:

a) aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq;

b) mahsulot, tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilishdan olingan yillik sof tushumi bazaviy hisoblash miqdorining bir million baravari va undan ortiq;

d) xodimlarining o‘rtacha yillik soni besh yuz nafardan kam bo‘lmagan tashkilotlar.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar tomonidan “MHXSning barqarorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etish standartlari” (IFRS Sustainability Disclosure Standards) 2027-yil 1-yanvardan boshlab qo‘llaniladi.

Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar o‘zining moliyaviy hisobotini hamda “MHXSning barqarorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlarni oshkor etish standartlari” asosida tuzilgan hisobotini auditorlik xulosasi bilan birga o‘z veb-saytida va Korporativ axborot yagona portalida aksiyadorlarning yoki tashkilotning boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin, ammo hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunidan kechiktirmay e’lon qilish ko‘zda tutilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini mamlakatimizda tan olish va amaliyotga joriy etish borasida xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish asosida, ularning ijobiy tomonlaridan mamlakatimiz amaliyotida foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” toifasiga kiradigan tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirish lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotda qo‘llaydigan “Jamoat ahamiyatiga ega tashkilotlar” toifasiga kiradigan tashkilotlar uchun moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish yoki mavjudlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 сентябрдаги “Молиявий ҳисоб тизимини халқаро талаб ва стандартларга мувофиқ такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-282-сон қарори.
2. Исманов И. Н. Бухгалтерия ҳисоби тизимининг молиявий ҳисоботларнинг халқаро стандартларига трансформациясининг зарурияти. “Иқтисод ва молия” журнали, № 3, 2017.
3. Хажимуратов Н. Ш. Молиявий ҳисоботнинг ишончлилигини таъминлаш йўналишлари. Иқтисод ва молия / Экономика и финансы, 3(135), 2020.
4. Ризаев Х. Ўзбекистон Республикасида 12-“Фойда солиқлари” МҲХСини қўллаш жараёнидаги муаммо ва ечимлар. Журнал “Экономика и социум”, 11 (102)-2, 2022.
5. Ташназаров С. Н. Мажбуриятлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш. “Экономика и социум”, № 5 (84), 2021.
6. Нестеренко Е. МСФО (IFRS) 2025: ключевые изменения и нюансы перехода. https://finacademy.net/materials/article/neobhodimost-perehoda-na-msfo. 08.04.2025.
7. Зибарева Е. Новые стандарты МСФО по устойчивому развитию. https://training.tedo.ru/blog/esg-reporting/. 08.04.2025.
8. Курбанов З. Н. Молиявий ҳисоботнинг барқарорлик стандартлари. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025 йил, апрель. www.sci-p.uz. 312–318-бетлар.
9. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқарувининг 2025 йил 27 декабрдаги қарори билан “Жамоат аҳамиятига эга ташкилотлар тоифасига киритиш мезонлари, уларнинг молиявий ҳисоботлари ва аудитига қўйиладиган талаблар ҳамда Жамоат аҳамиятига эга ташкилотлар реестрини шакллантириш ва юритиш тартиби тўғрисидаги низом”. [Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил 27 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3736].



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. VI maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz










SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
"INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2026-yil 25-26-sentabr



